



LIRIK MATNNI TUSHUNISH

Osiyo Xalqaro universiteti 1-kurs magistranti

Qosimova Sarvinoz Sayfiddinovna

Ilmiy rahbar: prof. Axmedova Shoirra Ne'matovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada tushunish va tushuntirish bilan bog'liq mulohazalar A.Oripovning "Tilla baliqcha" she'rini talqin qilish orqali ochib berilgan. She'rga bugungi kun, ta'lim-tarbiya tizimi orqali baho berilgan.

Kalit so'zlar: Shoir, she'r, badiiy matn, adabiyot, tushunish, tahlil, talqin

Kirish. Tushunish – bu shunchaki o'qish emas, balki ma'noga yetib borish, so'zlar ortidagi ruhni his eta olishdir. Badiiy asarni anglab o'rganish esa kitobxonni befarqlikdan olib chiqib, tafakkur va tuyg'ular olamiga yetaklaydi. Asarlar har bir o'quvchi qalbida turlicha aks-sado berishi tabiiy, chunki adabiyot yagona talqin bilan chegaralanmaydi. Aksincha, u har kimning dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va ruhiy holatiga ko'ra o'ziga xos ma'no kasb etadi. Zero, adabiyot hammani bir xil fikrlashga majbur etish uchun emas, balki har kimni o'zicha mushohada qilishga chorlaydigan ma'naviy maktabdir. Ana shunday teran ma'no va ramzlarga boy asarlardan biri – o'zbek adabiyotining yorqin namoyandasi Abdulla Oripov qalamiga mansub "Tilla baliqcha" she'ridir. Mazkur maqolada ushbu she'r matni ustida fikr yuritiladi.

Abdulla Oripovning "Tilla baliqcha" asari adabiyotshunoslikda keng muhokama etilgan bo'lib, uning asosida ko'plab maqolalar va ilmiy tahlillar yaratilgan. Xususan, Suvon Meliyevning "Tilla baliqcha fojiasi" nomli maqolasida, shuningdek, Y. Qosimovning "Tilla baliqchaning toleyi" maqolasida ham asar talqini mantiqiy yondashuv asosida yoritilib, she'r obrazlari orqali ilgari surilgan ijtimoiy ma'nolarga alohida e'tibor qaratiladi, asardagi ramziylik chuqur tahlil qilib



berilgan. Bundan tashqari, D. Jumanazarovning tadqiqoti ham alohida ahamiyatga ega. Unda muallif “Tilla baliqcha” she’ri matniga zamonaviy nuqtayi nazardan yondashib, asarning bugungi o‘quvchi tafakkuridagi o‘rnini va uning universallik xususiyatlarini ochib beradi. “Abdulla Oripovning “Tilla baliqcha” she’ri baliqchanning fojiasi haqida. Ammo bundanda kattaroq fojia ham mavjud. Asarda ezgulik, oliy maqsadlar, insoniylik fojiasi aks ettirilgan. Ancha katta, go‘zal, mo‘jizakor bir olamda ezgulik tashuvchisi bo‘lishi lozim bo‘lgan insonlar loyqa hovuzdek muhitga tushib qolsa-yu, unga ko‘nikib, dunyoni faqat shunday tasavvur qilsa, bundan og‘ir fojia bo‘lmasa kerak”, – deya ta’kidlaydi¹. Shuningdek, TerDU magistranti Xoliyorova Aziza o‘z ilmiy ishida mazkur asar yuzasidan o‘ziga xos fikr-mulohazalarini bayon etib, she’rning badiiy-estetik qiymatini hamda ramziy talqin imkoniyatlarini tahlil etadi. “Menimcha ham tilla baliq obrazi orqali butun bir xalq, millat, davlatning zamon va makondagi ahvoli ro‘yi-rost ko‘rsatilgan”, – deydi tadqiqotchi.

Asar 1965-yilda yaratilgan bo‘lib, ko‘plab munaqqidlar uning mazmunini o‘sha davr tuzumi bilan bog‘lashga urinadilar. Chunki sovet fuqarosi Ittifoq doirasidan tashqaridagi hayotni na ko‘rgan, na to‘liq tasavvur qila olgan; hatto uning borib-ko‘rish imkoniyatlari ham siyosiy mezonlar bilan qat’iy chegaralangan edi. Ayniqsa, adabiyot va ijodkorlar uchun belgilangan ma’lum bir “ramka”dan chiqib ketish oson bo‘lmagan. Bu holat davr haqiqatining achchiq, ammo inkor etib bo‘lmas jihatlaridan biridir. Shu ma’noda, shoir ushbu she’r orqali mavjud tuzumning yopiq muhiti, cheklangan tafakkuri va tor imkoniyatlarini ramziy obrazlar vositasida ifodalashni ko‘zlagan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Biroq boshqa bir talqinga ko‘ra, ijodkorning aniq bir siyosiy maqsadi bo‘lmagan: balki u kunlarning birida oddiy hayot manzarasidan – ko‘lmakda yoki tor hovuzchada suzib yurgan birgina baliqchadan ilhom olib, ushbu manzarani qog‘ozga ko‘chirib qo‘ygan. Ammo tarix shuni ko‘rsatadiki, mazkur asar shoir taqdirida iz qoldirmay

¹ Jumanazarova D. *Education and Research in the Era of Digital Transformation*.



o'tmagan: aynan shu she'r sabab Abdulla Oripov turli tanqid va malomatlarga duchor bo'lgan. Bu holat esa asarning nafaqat badiiy, balki ijtimoiy-ta'sir kuchi ham yuqori bo'lganidan dalolat beradi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, bir matn har kimda har xil hissiyot yoki tasavvur uyg'otishi mumkin. Men o'qituvchiman va taqdir taqozosi bilan jonajon Respublikamizning turli viloyatlarida faoliyat yuritganman. Guruch kurmaksiz bo'lmaydi, deganlaridek, o'tayotgan fanidan bilimga ega bo'lmagan, o'z ustida ishlaymaydigan va saviyasiz hamkasblarimni uchrataman. Ular o'z kasbini sevmaydi, faoliyatining mohiyatini anglamaydi, eng asosiysi, o'ziga ishonib topshirilgan Vatan kelajagi hayotiga mutlaqo befarq. To'g'ri, ayrim, ba'zan ko'plab o'quvchilar ta'lim olishni istamaydi, tarbiyasi og'ir, maqsadi yo'q. Lekin shunday o'quvchilar uchraydiki, ularda xotira ummoni cheksiz, tafakkur dengizi tubsiz. O'rganishga chanqoq, ilmga mushtoq. Ammo so'zni bo'g'inga ham ajratishni bilmaydigan, o'zbek tilida o'n ikkita so'z turkumi borligini bilmaydigan ustoz qo'lida uzuq-yuluq bilimli, chala-chulpa o'qigan bolalarni ko'raman. Men har gal o'z ishiga va faniga mas'uliyatsizlik bilan qaragan hamkasbimni uchratsam, A.Oripovning "Tilla baliqcha" she'ri xayolimga keladi.

"Tuxumdan chiqdi-yu keltirib uni" – bolaning ayni bilim oladigan yoshida maktabga olib keladilar. "Shu loyqa hovuzga tomon otdilar" – maktablar aslida yurt ertasini yelkasida kutaradigan iymonli, oliygohlar kadr qilib chiqaruvchi mutaxassislarni vijdonli qilib tarbiyalaydigan, bilim ummoni bo'lishi kerak, bilimsiz ustozlar, poraxo'r rahbarlar dastidan hovuzchaga aylangan. "Tashlandiq ushoq yeb o'tadi kuni" – haqiqiy bilim olib emas, butun "non"ni emas, uning ushoqchalarini "yeb" ulg'aymoqda. "Xor-u xas, xazonlar ustin yopdilar" – ustida bilim bo'gida xazonga yuz tutgan kimsalar, "Dunyoda ko'rgani shu tor hovuzcha" – maktab deb biladigan yeri keng ummon emas, "tor" ligidan borgisi kelmaydigan joy, "Va mudroq tollarning achchiq xazoni" – o'z ustida ishlaymaydigan, g'aflat uyqusida mudrab yurgan mevasiz tollarning kamiga "xazonga" ga allaqachon yuz tutgan



to'liqsiz va sifatsiz bilimlari, eng alam qiladigani esa "Menga alam qilar tilla baliqcha, Bir ko'lmak hovuz deb bilar dunyoni" – ya'ni sho'rlik o'quvchi ta'lim shu, bilim shunaqa, maktabda o'qish shunday bo'lsa kerak deb o'ylaydi. Ya'ni dunyoga shu yerdan – "maktabidan" turib baho beradi, olamga ilm ko'zi ko'r ustozining "ko'zlari" bilan qaraydi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar tilla baliqchani "jamiyatning qurboni" deb ataganlar. Nazarimda bu gapda jon borday. O'z muammolari bilan o'ralashib, ilmi bo'lishni istamaydigan, umrida bitta kitob o'qimaydigan ustozlar tilla baliqchalarimizni qurbon qilishmayaptimikan!!? Men bunday "o'qituvchilarga" A.Fitratning "Turma - yugur, tinma - tirish, bukilma - yuksal, Hurkma - kirish, qo'rqma - yopish, yo'rilma - qo'zg'al!" degan so'zlarini aytgan, yurt uchun qo'zg'alish lozimligini baralla aytgan bo'lar edim.

Garchi tilim achchiq, tomadi zahar,
Nazmim ham emasdir madh etgudek zo'r.
Vatan ertasidan xavotir olib,
"Uyg'on" deb bir oyna tutganman, uzr.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1987.-98 b
2. Jumanazorova D. "Tilla baliqcha"dek ijod ummoninin barpo etgan buyuk shoir"\\ Education and research in the era of digital transformation.2023.
- 3.Қўшжонов М.,Мелиев С. Абдулла Орипов Т. 2000.
3. Rayxonova M. Abdulla Oripov she'riyatida olamni idrok etish va badiiy voqelantirish tadriji:Filol.fanlari bo'yicha falsafa doktori..diss.- Qarshi,2021.-7 b